


„Plant Diversity of Central Asia" (PDCA) jurnalining 2-soni nashrdan chiqdi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti „Plant Diversity of Central Asia" (PDCA) jurnalining 2-soni nashrdan chiqqanligini ma'lum qiladi. Jurnalning birinchi nashri joriy yilning yanvar oyida e'lon qilingan edi.



Ma'lumot o'rinda, mazkur jurnal (Markaziy Osiyo o'simliklari xilma-xilligi) Markaziy Osiyoda to'liq ingliz tilida botanika sohasidagi ilmiy maqolalarni chop etadigan birinchi xalqaro jurnal hisoblanadi.

Jurnalning mazkur sonida:

- Markaziy Osiyo florasini tadqiqotchisi va gerbariyarlari asoschisi, Sovet va O'zbekiston florasini monografiyalari muallifi, taniqli botanik - Aleksey Ivanovich Vvedenskiy (<https://www.pdca.uz/site/pdf/20>);
- Markaziy Osiyoda o'simliklarni muhofazasining noan'anaviy uslublari (<https://www.pdca.uz/site/pdf/21>);
- Piyozi kenja turkumi 10 ta turining to'liq xloroplast genomi tavsifi (<https://www.pdca.uz/site/pdf/22>);
- O'zbekistondagi shirach turkumining morfologiyasi va taksonomik tavsifi (<https://www.pdca.uz/site/pdf/23>);
- Lola turkumining tarqalishida ta'sir qiladigan omillar (<https://www.pdca.uz/site/pdf/25>) kabi ilmiy maqolalar joy olgan.

Jurnalning onlayn nashri bilan quyidagi manzil orqali kirib tanishishingiz mumkin:

https://www.pdca.uz/volumearticles?volume_id=2.